ИННОВАЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННОГО КАПИТАЛА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ.....	727
Г.А.Хайитбаева	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH.....	734
Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR TA'SIRINI BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	738
Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi	
MOLIYA TIZIMI BARQARORLIGI VA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING AHAMIYATI.....	743
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: AN ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN CARBON EMISSIONS AND ECONOMIC DEVELOPMENT.....	748
Shakhriddinova Sitara Tolibjon kizi	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSİYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ESG TAMOYILLARINING ROLI	760
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA YETKAZIB BERISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	769
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
YASHIL IQTISODIYOT KONTEKSTIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	776
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SPORT TASHKILOTLARINING YANGI BIZNES MODELLARINI ISHLAB CHIQISH	782
G'ulomov Musirmon	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTISIYALARNI JALB ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	786
Sharipova Shahnoza Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTISIYA MUHITIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA INVESTISIYALARNING IQTISODIYOTGA JALB ETILISH HOLATI TAHLILI	795
Karimova Qunduz Atanazarovna	
O'ZBEKISTON TURISTIK XIZMATLAR BOZORIDA BANDLIK TRANSFORMATSIYASINI VA UNI TARTIBGA SOLISH HOLATINI TAHLIL QILISH	804
To'xtayeva Xurshida Farxodovna	
INVESTITSIYA LOYIHALARIGA TA'SIR QILUVCHI INVESTITSIYA RISKLARINI BAHOLASH	811
Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	
ТИПЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ФИНАНСОВЫХ РАЗВЕДОК: ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ, ФОРМЫ И МЕТОДЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	817
Эсанов Шохрух Отабекович	
FACE RECOGNITION PROGRAM IN PYTHON	823
Khurramova Maftunakhon Zhurabekovna, Khurramov Azizjon Bakhodir ugli	
FORMATION OF ACCOUNTING POLICY FOR INTANGIBLE ASSETS	827
Farxod T. Abduvaxidov, Ramazon A. Abdurakhmanov	
O'ZBEKISTON EKSPORT TARKIBINI YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATLI MAHSULOTLARGA O'TKAZISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	834
Raximov Eshmurod Normuradovich	
EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	850
Azimova Moxinur Nozimovna	

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH

Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna

PhD., dotsent, “Marketing” kafedrası
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Annotatsiya: Maqolada Xorazm viloyati sanoat korxonalarida korporativ madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish jarayonida boshqaruv samaradorligini optimallashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tashkiliy madaniyat elementlari, ularning barqaror faoliyatni ta’minlashdagi ahamiyati va rivojlanishni boshqarish bilan o‘zaro aloqasi yoritiladi. Shuningdek, OSAI vositalaridan foydalanish orqali korporativ madaniyatni baholash imkoniyatlari, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida samaradorlikni oshirish va hududiy rivojlanishga yo‘naltirilgan strategiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: korporativ madaniyat, tashkiliy qadriyatlar, yashil iqtisodiyot, samaradorlik, optimallashtirish, OSAI, Xorazm viloyati, sanoat korxonalar, hududiy rivojlanish.

Abstract: The article examines the issues of optimizing management efficiency in the process of forming and improving corporate culture in industrial enterprises of the Khorezm region. It highlights the elements of organizational culture, their role in ensuring sustainable operations, and their interrelation with development management. In addition, the study analyzes the possibilities of assessing corporate culture using OSAI tools, as well as strategies aimed at improving efficiency and promoting regional development.

Key words: corporate culture, organizational values, efficiency, optimization, OSAI, Khorezm region, industrial enterprises, regional development.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы оптимизации эффективности управления в процессе формирования и совершенствования корпоративной культуры на промышленных предприятиях Хорезмской области. Освещаются элементы организационной культуры, их значение в обеспечении устойчивой деятельности и взаимосвязь с управлением развитием. Кроме того, анализируются возможности оценки корпоративной культуры с использованием инструментов OSAI, а также стратегии, ориентированные на повышение эффективности управления, интеграцию принципов «зелёной экономики» и региональное развитие.

Ключевые слова: корпоративная культура, зелёная экономика организационные ценности, эффективность, оптимизация, OSAI, Хорезмская область, промышленные предприятия, региональное развитие.

KIRISH

Xorazm viloyati O‘zbekistonning sanoat salohiyati yuksalib borayotgan hududlaridan biridir. Hududda oziq-ovqat, qurilish materiallari, yengil sanoat va kimyo sanoati korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash, balki korporativ madaniyat orqali boshqaruv samaradorligini ham oshirishga intilmoqda.

Kuchli tashkiliy madaniyat xodimlarning mehnat unumdorligini oshiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi va korxonani hududiy bozor talablariga tezkor moslashishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyati sanoat korxonalarida korporativ madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish boshqaruv samaradorligini optimallashtirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish jarayonida yashil iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Energiya tejoychi texnologiyalar, ekologik mas'uliyat va resurslardan oqilona foydalanish korporativ qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ham ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ madaniyat va barqaror rivojlanish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bu masalaga xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda alohida e'tibor qaratilgan.

Sheyn (1992) korporativ madaniyatni tashkilotning uch darajali modeli - tashqi artefaktlar, qadriyatlar va chuqur taxminlar orqali tushuntiradi. Unga ko'ra, barqaror faoliyat yuritish uchun qadriyatlar tizimi asosiy determinant sifatida namoyon bo'ladi¹. Denison (2000) esa madaniyatni samaradorlik bilan bog'lab, ishtirokchilik, izchillik, moslashuvchanlik va missiya elementlarini muvaffaqiyatning to'rtta ustuni sifatida ta'riflaydi².

Cameron va Quinn (2019) tomonidan ishlab chiqilgan Competing Values Framework (CVF) modeli tashkilotlarda innovatsion qarorlarni tanlash va ularni madaniyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu yondashuv sanoat korxonalarida, xususan, hududiy bozor sharoitida, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llaniladi³.

Mahalliy adabiyotlarda ham ushbu masalalar yoritilgan. Mahmudov (2019) korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyotini tahlil qilib, O'zbekiston sharoitida korxonalarda samaradorlikni oshirish uchun tashkiliy qadriyatlar tizimini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi⁴. Raximov esa sanoat korxonalarida korporativ qadriyatlar orqali raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini izohlagan⁵.

Shuningdek, OECD (2020) tomonidan ishlab chiqilgan OSAI (Organizational Self-Assessment Instruments) vositalari xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib, korxonalar o'zini baholash orqali zaif jihatlarni aniqlash va ularni optimallashtirish imkoniyatini oladi⁶.

Barqaror rivojlanish bilan bog'liq adabiyotlarda (UNDP, 2021) korxonalar uchun ekologik mas'uliyat, resurslardan oqilona foydalanish va hududiy rivojlanish strategiyalarini korporativ qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zarurligi alohida ta'kidlanadi⁷.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi korporativ madaniyatni shakllantirish va uni barqaror rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish jarayonini Xorazm viloyati sanoat korxonalari misolida o'rganishga asoslangan.

Birinchidan, nazariy asos sifatida Sheynning uch darajali modeli (artefaktlar, qadriyatlar, taxminlar)⁸ va Denison modeli (ishtirokchilik, izchillik, moslashuvchanlik, missiya)⁹ qabul qilindi. Bu yondashuv orqali Xorazm viloyatidagi korxonalar korporativ qadriyatlarini tizimi tahlil qilindi.

Ikkinchidan, Cameron va Quinn (CVF) modeli¹⁰ asosida tashkiliy madaniyatning turli tiplarini (klan, adhokratiya, bozor, ierarxiya) aniqlash hamda ularning barqaror rivojlanish strategiyalariga ta'siri baholandi.

Uchinchidan, korxonalarda korporativ madaniyatni baholashda OSAI vositalaridan foydalanildi. Bu metod o'zini baholash indikatorlari asosida tashkiliy madaniyat darajasini o'lchash, zaif jihatlarni aniqlash va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

To'rtinchidan, hududiy statistik tahlil amalga oshirildi: 2017-2024 yillarda Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari, investitsiya oqimlari va eksport-import ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ularning korporativ madaniyat bilan bog'liqligi baholandi.

Beshinchidan, hududiy statistik tahlil qo'llanildi: 2017-2024 yillarda Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari, investitsiya oqimlari va eksport-import ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ularning korporativ madaniyat va boshqaruv samaradorligi bilan bog'liqligi aniqlashtirildi¹¹.

Nihoyat, sifat va miqdoriy tahlillar uyg'unlashtirildi: intervyu va so'rovnomalar orqali xodimlarning korporativ qadriyatlarga munosabati o'rganildi, statistik ko'rsatkichlar esa boshqaruv samaradorligi bilan taqqoslandi.

1 Schein, E. (1992). Organizational Culture and Leadership. Jossey-Bass.

2 Denison, D. (2000). Organizational Culture and Effectiveness. IMD.

3 Cameron, K. S., & Quinn, R. E. (2019). Diagnosing and Changing Organizational Culture. Jossey-Bass.

4 Mahmudov, A. (2019). Korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Iqtisodiyot.

5 Raximov, Sh. (2020). Sanoat korxonalarida korporativ qadriyatlar va samaradorlik. TDIU ilmiy jurnali, №2.

6 OECD (2020). Organizational Self-Assessment Instruments for Performance Improvement. Paris.

7 UNDP (2021). Sustainable Development Goals Report. New York.

8 Schein, E. (1992). Organizational Culture and Leadership. Jossey-Bass.

9 Denison, D. (2000). Organizational Culture and Effectiveness. IMD.

10 Cameron, K. S., & Quinn, R. E. (2019). Diagnosing and Changing Organizational Culture. Jossey-Bass.

11 Mahmudov, A. (2019). Korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Iqtisodiyot.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarishi 2017-2024 yillar davomida turli davrlarda barqaror o'sish va qisqa muddatli pasayish bosqichlarini boshdan kechirdi. 2017-yilda ishlab chiqarish hajmi 1000 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 1150 mlrd so'mga yetib, 15 foiz o'sishga erishildi. Bu davrda yangi boshqaruv texnologiyalari, xususan, sifat menejmenti elementlarini joriy etish va korxonalar faoliyatini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish o'z samarasini bergan.

2019-yilda ishlab chiqarish hajmi 1400 mlrd so'mga yetib, 21,7 foiz o'sish qayd etildi. Bu Xorazm viloyati sanoat korxonalarida korporativ qadriyatlarning rivojlanishi va xodimlarning ishtirokchilik madaniyatiga asoslangan qaror qabul qilish jarayoniga keng jalb etilishi bilan izohlanadi. Ushbu davrda hududiy korxonalar eksport hajmlarini oshirishga erishgan bo'lib, bu ham boshqaruv samaradorligining oshganini ko'rsatadi.

Biroq, 2020-yilda pandemiya oqibatida ishlab chiqarish hajmi 1350 mlrd so'mga tushib ketdi. Pasayish (-3,6%) ko'rsatadiki, ayrim korxonalarda korporativ madaniyatning moslashuvchanlik elementi yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bilan birga, ayrim yirik korxonalar qisqa muddat ichida tezkor qaror qabul qilish orqali tashqi zarbalarni yumshatishga muvaffaq bo'ldi. Bu korxonalar asosan OSAI baholash natijalarida yuqori darajadagi missiyaga sodiqlik va izchillik ko'rsatkichlari bilan ajralib turdi.

2021-yildan boshlab ishlab chiqarish hajmi qayta tiklanib, 1600 mlrd so'mga yetdi. Bu 18,5 foizlik o'sishni tashkil etdi. Ushbu davrda hududiy sanoat korxonalarida ekologik samaradorlik, energiya tejovchi texnologiyalar va innovatsion boshqaruv yondashuvlariga e'tibor kuchaygani kuzatildi. Aynan shu jarayonda korporativ madaniyatning moslashuvchanlik elementi faolroq namoyon bo'la boshladi.

Ayniqsa, 2021-yildan boshlab korxonalar faoliyatida yashil texnologiyalar va ekologik samaradorlik elementlarining joriy etilishi kuzatildi. Bu jarayon korporativ madaniyatning moslashuvchanlik komponenti bilan uyg'unlashib, energiya tejamkor usullar, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tashabbuslarni kuchaytirdi. Natijada korxonalar barqaror o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda, xalqaro standartlarga yaqinlashishga erishmoqda.

2022-yilda ishlab chiqarish hajmi 1850 mlrd so'mni tashkil etib, 15,6 foiz o'sishga erishildi. Korxonalarda xodimlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, jamoaviy qaror qabul qilish jarayonlarini kuchaytirish va korporativ qadriyatlarni rivojlantirish barqaror natijalar berayotganini ko'rsatadi.

2023-yilda ishlab chiqarish hajmi 2000 mlrd so'mga yetib, 8,1 foizlik o'sish qayd etildi. O'sish sur'ati nisbatan past bo'lishiga qaramay, bu davrda korxonalar missiyaga sodiqlik va izchillik elementlarini mustahkamlash orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga erishdi.

2024-yilga kelib ishlab chiqarish hajmi 2250 mlrd so'mga yetdi va 12,5 foizlik barqaror o'sish qayd etildi. Bu natija shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati sanoat korxonalarida korporativ madaniyatning shakllanishi va takomillashuvi boshqaruv samaradorligini optimallashtirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, 2017-2024 yillar davomida Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi 2,25 baravarga oshdi. Ushbu natijalar korporativ madaniyatning tashkiliy qadriyatlarni rivojlantirish, xodimlarni qaror qabul qilish jarayoniga keng jalb etish va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaganini tasdiqlaydi.

Xorazm viloyati sanoat korxonalari misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, korporativ madaniyat boshqaruv samaradorligini optimallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. 2017-2019 yillarda kuzatilgan yuqori o'sish sur'atlari korporativ qadriyatlarning ishtirokchilik va innovatsion tashabbuslar bilan uyg'unlashganini anglatadi. Bu davrda korxonalar global bozorga chiqishga faol intilgan, natijada ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortgan.

2020-yildagi pasayish esa boshqaruv samaradorligi bevosita tashkiliy madaniyatning moslashuvchanlik elementi bilan bog'liq ekanini yaqqol ko'rsatdi. Moslashuvchanlik yetarli darajada rivojlanmagan korxonalar tashqi zarbalarga chidamsiz bo'lib chiqdi. Aksincha, izchillik va missiyaga sodiqlik qadriyatlari ustuvor bo'lgan korxonalar qisqa muddatda tiklanishga erishdi. Bu esa korporativ madaniyatning barqaror rivojlanish strategiyalarida asosiy omil ekanini isbotlaydi.

2021-2024-yillarda kuzatilgan o'sish barqarorligi korxonalarda korporativ madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha boshlangan islohotlar samaradorligini ko'rsatadi. OSAI vositalaridan foydalanish orqali tashkiliy madaniyatni baholash va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatlari samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qilgan. Shu davrda xodimlarning qaror qabul qilish jarayonidagi faolligi oshgan, bu esa participative decision-making tamoyillarining amalda joriy etilayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Xorazm viloyati sanoat korxonalarida barqaror rivojlanish strategiyalarining muvaffaqiyati ekologik mas'uliyat va resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan korporativ qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib chiqdi. Ekologik samaradorlikka yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvlari nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki hududiy raqobatbardoshlikni ham oshirishga xizmat qilmoqda.

Muhim jihatlardan biri shuki, korporativ madaniyat va yashil iqtisodiyot o'zaro uyg'unlashganda, korxonalar nafaqat ichki samaradorlikka, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshlikka erishadi. Yashil investitsiyalarni

jalb etish, ekologik sertifikatlash tizimlarini qo'llash va resurslardan oqilona foydalanish Xorazm viloyati sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati sanoat korxonalarida korporativ madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish boshqaruv samaradorligini optimallashtirishda strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon kelajakda hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati sanoat korxonalarida korporativ madaniyat boshqaruv samaradorligini optimallashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. 2017-2024 yillar davomida ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishi korxonalar faoliyatida tashkiliy qadriyatlarning shakllanishi, innovatsion boshqaruv texnologiyalarining joriy qilinishi va xodimlarning qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, pandemiya davrida kuzatilgan qisqa muddatli pasayish korporativ madaniyatning moslashuvchanlik elementi yetarlicha rivojlanmaganini ko'rsatdi. Bu esa, kelgusida samarali boshqaruvni ta'minlash uchun tashkiliy madaniyatni muntazam ravishda takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, korporativ madaniyatning izchillik va missiyaga sodiqlik komponentlari Xorazm viloyati sanoat korxonalarida barqaror o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, ishtirokchilik va moslashuvchanlik elementlari yetarlicha rivojlanmagani sababli ayrim korxonalarda tezkor qaror qabul qilish va tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish jarayonlari sekin kechmoqda. Shu bois, korxonalar faoliyatida ishtirokchilikni kuchaytirish, xodimlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va moslashuvchanlikni rivojlantirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmog'i lozim.

Xorazm viloyati sanoat korxonalarida korporativ madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishda va hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, korxonalar faoliyatida OSAI baholash vositalarini keng joriy etish, ishtirokchilik va moslashuvchanlikni kuchaytirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, ekologik mas'uliyatni korporativ qadriyat sifatida mustahkamlash va innovatsion tashabbuslarni rag'batlantirish zarur. Shuningdek, xodimlar malakasini oshirish jarayonida korporativ qadriyatlar va boshqaruv texnologiyalari uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Bu omillarni uyg'unlashtirish natijasida Xorazm viloyati sanoat korxonalari nafaqat ichki samaradorlikni oshiradi, balki hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). *2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent.
2. Mahmudov, A. (2019). *Korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Raximov, Sh. (2020). Sanoat korxonalarida korporativ qadriyatlar va samaradorlik. *TDIU ilmiy jurnali*, №2.
4. Mamatqulov, D. (2021). *Tashkiliy madaniyat va innovatsion boshqaruv*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Schein, E. (1992). *Organizational Culture and Leadership*. San Francisco: Jossey-Bass.
6. Denison, D. (2000). *Organizational Culture and Effectiveness*. IMD.
7. Cameron, K. S., & Quinn, R. E. (2019). *Diagnosing and Changing Organizational Culture*. Jossey-Bass.
8. Hofstede, G. (2010). *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. McGraw-Hill.
9. Wagner, J. A. (1994). Participation's effects on performance and satisfaction: A reconsideration of research evidence. *Academy of Management Review*, 19(2), 312-330.
10. Cotton, J. L., Vollrath, D. A., Froggatt, K. L., Lengnick-Hall, M. L., & Jennings, K. R. (1988). Employee participation: Diverse forms and different outcomes. *Academy of Management Review*, 13(1), 8-22.
11. OECD (2020). *Organizational Self-Assessment Instruments for Performance Improvement*. Paris.
12. UNDP (2021). *Sustainable Development Goals Report*. New York.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI